


TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

Chakana savdo tovar aylanmasi joriy yilning yanvar-aprel oyida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 9,1 % o'sdi.

Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 29,3 foizni tashkil etdi va o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 128,4 % ga o'sdi.

2019 yil yanvar-aprel oyida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'atlari (o'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da)




2018 yilning shu davriga nisbatan Toshkent shahrining barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Yakkasaroy tumani 130,7%, Olmazor tumani 124,0, Shayxontoxur tumani 115,4 %, Sergeli tumani 113,2 % Yunusobod tumani 112,7%, da qayd etilgan bo'lsa, ayrim tumanlarda, jumladan, Chilonzor tumani 101,0%, Uchtepa tumani 101,8% hamda Bektemir tumanlarida 101,1% nisbatan past ko'rsatkichlar qayd etilgan.

Ovqatlanish tashkilotlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 628,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 114,3 % ga o'sdi. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiy hajmida ovqatlanish korxonalarining ulushi 6,0 % ni tashkil etdi.

Tumanlarning umumiy ovqatlanishdagi ulushi


(jamiga nisbatan foizda)



Umumiy ovqatlanish tashkilotlari savdo aylanmasi umumiy hajmida eng katta ulush Yunusobod 19,8%, Sergeli tumani 15,8%, Shayxontoxur tumani 11,9 %,

Yakkasaroy tumani 13,6 % tashkil etgan bo'lsa, Yashnobod tumani 2,0 % Bektemir tumani 5,8 % va Mirobod tumani 6,3% ulush bilan eng past ko'rsatkichni qayd etdi.

Hududlar kesimida jami chakana savdo tovar aylanmasining ulushi
(jamiga nisbatan, foizda)



Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 29,3 % ni tashkil etib, chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Chilonzor tumani (17,1 foiz), Shayxontoxur tumani (11,5 foiz), Uchtepa tumani (10,9 foiz), va Yunusobod tumani (11,2foiz) bilan chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 4144,2 ming. so'mni tashkil etdi. O'rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Bektemir tumani (26049,8 ming. so'm), hilonzor tumani (7240,2 ming. so'm), Yakkasaroy tumani (6647,7 ming. so'm), Mirobod tumani (5150,5 ming. so'm) Uchtepa (4273,8 ming. so'm), kuzatildi.




**Aholi jon boshiga chakana
savdo tovar aylanmasi**

	Ming. so'm	o'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda
Toshkent shahri	4144,2	107,1
tumanlar:		
Uchtepa	4273,8	100,7
Bektemir	26049,8	97,6
Yunusobod	3538,8	110,8
Mirzo Ulug'bek	2565,5	105,8
Mirobod	5150,5	107,9
Shayxontoxur	3529,6	112,8
Olmazor	1822,8	121,7
Sergeli	3915,8	109,5
Yakkasaroy	6647,7	129,3
Yashnobod	2992,3	101,6
Chilonzor	7240,2	98,9


Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

(o'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan, foizda)



2018 yil yanvar-aprel oyida chakana savdo tovar aylanmasi Toshkent shahar bo'yicha aholi jon boshiga 4144,2 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7,1 %ga ko'paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019 yilning yanvar-aprel oyida o'tgan yilga nisbatan Toshkent shahrida eng yuqori o'sgan Yakkasaroy tumani 129,3% Yunusobod tumani 110,8 %, Mirzo-Ulug'bek tumani 105,8 %, va Mirobod tumani 107,9 % tumanlar hissasiga to'g'ri keladi. Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha o'sish sur'ati eng kam ko'rsatkichlar Chilonzor tumani 98,9 %, Bektemir tumani (97,6%) qayd etilgan.

Kichik korxonalar va Mikrofirmalar ulushi
(jami chakana savdo aylanmasidan)




Kichik korxonalar va mikrofirmalar jami chakana savdo tovar aylanmasida ulush eng katta bo'lgan tumanlar: Mirzo-Ulug'bek tumani (46,3%), Olmazor tumani (34,8%), Chilonzor tumani (23,4%), Yunusobod tumani (23,1%). Bu tumanlar Toshkent shahrining chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Shu bilan birga past ko'rsatkichlarga ega tumanlar ham bor, jumladan, Bektemir tumani (9,9%), Yashnobod tumani (18,9%) hissasiga to'g'ri kelgan .

2019 yil yanvar-aprel oylarida ulgurji savdo

2019 yil yanvar-aprel oylarida ulgurji tovar aylanmasi hajmi 9127,4 mlrd. so‘mni yoki 2018 yilning shu davriga nisbatan 106,4 % ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar 7203,4 mlrd. so‘mga yetib, umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 79,0 %ni tashkil qildi.




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulgurji savdodagi ulushi jami savdoga nisbatan (%)



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'p ulushga ega tumanlarga Uchtepa tumani (98,7%), Shayxontoxur tumani (96,9%), Sergeli tumani (92,1), Yunusobod tumani (87,7%) va Bektemir tumani (93,9%), eng past ulush esa Yakkasaroy tumanlariga (72,2%), Olmozor tumani (62,0%) va Yashnobod tumani (64,7%), to'g'ri kelgan.


Ulgurji savdo tovar aylanmasi ulushi

(jamiga nisbatan foizda)



Ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan tumanlar Yakkasaroy tumani 16,7 %, Mirzo-Ulug'bek tumani 13,8 %, Yunusobod tumani 11,3 %, Mirobod tumani 9,9%, Olmozor tumani 12,2 % tashkil etgan bo'lsa, shu bilan bir qatorda ba'zi bir tumanlar ya'ni Bektemir tumani 1,3 %, Uchtepa tumani 4,5%, Sergeli tumani 4,8 %, Yashnobod tumani 8,6 jamiga nisbatan eng past ko'rsatkichlarni qayd etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi jamiga nisbatan



Ulgurji tovar aylanmasida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi eng yuqori Yakkasaroy tumani 15,2%, Mirzo-Ulug'bek tumani 13,4 %, Yunusobod tumani 12,6 %, Mirobod tumani 10,2% Chilonzor tumani 10,2 %, hamda eng kam ko'rsatkichni Bektemir tumani 1,6% qayd etgan.



Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi.
Abdurayimov J.J
Tel: 230-88-20 (21)